



UMAR XAYYOM RUBOIYLARI TARJIMALARIDA BADIY TASVIR VOSITALARINING QO'LLANILISHI

<https://doi.org/10.5281/zenodo.17679663>

Ismoilova Madinaxon Maxamodjon qizi

madinaismoilova70@gmail.com

*Qiyosiy tilshunoslik, lingvistik tarjimashunoslik kafedrası magistranti, Toshkent
davlat sharqshunoslik universiteti*

Ilmiy rahbar: Ochilov E. f.f.n., dots.

Toshkent, O'zbekiston

ANNOTATSIYA: Umar Xayyom kulliyoti hayot haqida chuqur tafakkur etuvchi har bir insonni befarq qoldirmaydi. Uning mazmun-mohiyatini anglash, forsiyda yozilgan misralarning o'zbek tiliga ko'chishi, uning ma'no-yu so'zlardagi o'zgarishlaridagi farqlar, badiiy tasvir vositalarining tarjimaga qanday ko'chishi va shu kabi ko'plab jihatlar mazkur mavzuni maxsus tadqiq etishni taqozo qiladi.

KALIT SO'ZLAR: Umar Xayyom, ruboiy, tarjima, tarjimon, tazod, tashbeh, ishtiyoq, o'xshamish va o'xshatilmish, asos va vosita, janr, san'at, omonim, talmeh.

Xayyom 1048-yilda Nishopurda tug'ilib, Balx, Buxoro, Samarqand va boshqa shaharlarda o'qib ulg'ayadi va o'z zamonasining barkamol olimlaridan biri bo'lib yetishadi. Umar Xayyom o'zining she'riy asarlari - ruboiyoti bilan butun olamni zabt etdi desak mubolag'a bo'lmaydi. U o'z ruboiylarida ham ilmiy-falsafiy kitoblarida bo'lganidek olam sirlari, hayot haqiqatini izlaydi, bu boradagi fikr-u o'ylarini ajoyib she'riy obrazlarga o'rab, mo'jizakor to'rtliklarda ifodalab beradi. Xayyomning ijodiga qiziqish XI asrlardan beri hali so'ngani yo'q.

Adabiyotdagi badiiy tasvir, ifodalilik va xushohanglik vositalari

badiiy san'atlar deyiladi. Buni o'rganadigan fanni «Ilmi sanoye» yoki «Ilmi bade» deganlar. Sharqda she'riyat asosiy janr bo'lganidan ko'pincha she'r san'atlari tushunchasi ham badiiy san'atlar ma'nosida qo'llaniladi.

Asar qanchalik go'zal bo'lmasin, unda qanday san'at vositalari-yu, obrazlar qo'llanilgan bo'lmasin, tarjimon uni o'z ona tilisida kitobxonga yetkazib bera olmasa, u asarning qiymati va noyoblighi o'z-o'zidan yo'qoladi. Asar borki unda doim adabiyotning go'zal ifodalari qo'llaniladi. Shuning uchun har qanday asar tarjimasida bu borada tarjimonda katta mas'uliyat bo'ladi.



Quyida Umar Xayyomning bir qancha ruboiylar tarjimasida qo'llanilgan badiiy tasvir vositalarini tahlil qilishga harakat qilamiz:

Gul bo'lmasa bizga bog' aro xor ham bas, qo'llashga muvaffaq bo'lgan. Bu esa *Nur yetmasa bizga yetmag'an nor ham bas.* ruboiyga o'ziga o'xshash shukr bo'lgan *Gar bo'lmasa bizga xonaqo, xirqavu shayx,* va ta'sir kuchini oshirgan *Noqis-u kaliso, bila zunnor ham bas*¹⁸.

Ushbu tarjima sharqshunos olim Jamol Kamolga tegishli bo'lib, u adabiyotda eng ko'p qo'llaniladigan san'atlardan biri, - tazodni qo'llagan. Bu san'at nafaqat bir so'zda, balki radif qilib olingan so'zlarda ham ishlatirilgan. Tilshunoslikda bu antonim deb atalib, o'zaro so'zlarni qarama qarshi qo'yishdir.

“*Gul*” - “*Xor*”, “*Nur*” - “*Nor*”, “*Xonaqo*” - “*Kaliso*”, “*Noqis*” - “*Shayx*” tazod san'atiga misol bo'la oladi. Ba'zi so'zlar mustaqil, ya'ni kontekstdan olganda, antonim bo'lmasa-da, asarda ma'nosi anglashilayotgan jihatiga ko'ra, ularni qarama qarshi qo'llash mumkin bo'ladi.

<i>Yoshlik degan ul</i>	افسوس که
<i>noma o'qilmish-</i>	نامه جوانی طی شد
<i>bitmish,</i>	و آن تازه
<i>Umrinning</i>	بهار زندگانی دی
<i>bahori qish tomon yuz</i>	شد
<i>tutmish.</i>	آن مرغ
<i>Bilmayman,</i>	طرب که نام او بود
<i>o'shal baxt qushi-</i>	شباب
<i>yoshlik otlig',</i>	افسوس ندانم
<i>Boshimga qachon</i>	که کی آمد کی شد
<i>qo'nib, tark etmish? ...</i>	

¹⁸.Jamol Kamol. 333 ruboiy. – T.: O'zbekiston, 1991. – B. 11.

Ushbu tarjima f.f.n., dotsent Ergash Ochilovga mansub bo'lib, ruboiyning deyarli har bir misrasida tazod san'atini so'zlardan tazod san'ati yasalgan. “*Qish*” va “*Bahor*” so'zlaridan tashqari barchasi misra ichidagi tazod so'zlar bo'lib kelgan. Har bir so'zga tarjimada qofiyadosh haqiqiy antonim so'zlarni topish tarjimonning badiiy mahorati va tajribasidan dalolat beradi. Shuning uchun ruboiy ichidagina zid bo'la oladigan so'zlarni qo'llash, tarjimon ishini birmuncha yengillashtiradi.

Ruboiyda aynan tazod san'atining ko'p uchrashi kuzatiladi. Chunki ruboiy kichik janr bo'lganligi uchun, shoir o'zining ichki kechinmalarini qisqa va lo'nda ifoda qiladi. Tazod esa ayni shu qisqalik masalasini qarama qarshi so'zlar bilan yorqin ifodalab bera oladi.

Lola yuzini har tong shabnam tutadi,
Binafsha chamanda bo'ynini xam tutadi.
Yayraydi ko'ngil g'unchaga boqib rosti,
*Yoymas etagini u sira-jam tutadi*²⁰.

Ustoz Ergash Ochilov tomonidan qilingan bu tarjimada go'zal tabiat va uning in'omi bo'lmish gullar

¹⁹ Ochilov E. Xayyom ruboiylarining o'zbekcha talqinlari // Umar Xayyom. Tiriklik tilsimi. – T.: O'zbekiston, 2012. – B. 51.

²⁰ Ochilov E. Xayyom ruboiylarining o'zbekcha talqinlari // Umar Xayyom. Tiriklik tilsimi. – T.: O'zbekiston, 2012. – B. 44.



tasvirlangan. Tarjimon bu yerda bir necha san'atlardan mohironalik bilan foydalangan. "Lolaning yuzi", "binafshaning bo'yni" tashxis, ya'ni jonlantirish san'atidir. Gullarning a'zolari bo'lmasa-da, ular shaklan insonning a'zolariga o'xshatilmoqda va ular jonlantirilmoqda. Badiiy adabiyotda narsalar, hayvonlar, o'simliklar va boshqalarga insoniy xususiyatlar ko'chirilganda, ushbu san'at qo'llaniladi. Bundan tashqari, tajnis san'ati ham ruboiyga o'zgacha mazmun baxsh etgan. U ham radif, ham tajnis rolini bajargan. "Tutadi" so'zi o'zining birikmalari bilan kelib, har misrada omonim hosil qilmoqda. "Shabnam tutadi", "Xam" tutadi, "Jam" tutadi.

Butxona-yu Ka'ba-xonasi
qullikning,
Zango'la chalish-taronasi
qullikning!
Mehrob-u Kaliso, tasbeh-u Salib,
Haq ulki, bari nishonasi qullikning.

²¹

Ushbu ruboiy ham dotsent Ergash Ochilov tarjimasiga mansub bo'lib, unda mutarjim ikkita san'at turidan foydalanib, ruboiyning aslidek chiqishini ta'minlagan. "Butxona" - "Kaba" bilan zidlanib, tazod yaratilgan. "Mehrob"- "Kaliso" bilan, "Tasbeh"- "Salib" bilan zidlantirilgan. Ya'ni salib yurishlari musulmonlarga qarshi urush bo'lganligi uchun, tasbehga qarshi qo'llanilgan. Bundan tashqari, tarjimada adabiyotdagi

eng go'zal san'atlardan tarse ham mavjud. Bunda ma'no kuchaytirilishi, misrada ifodaning yorqinroq namoyon bo'lishi uchun so'zlar joyi o'zgartiriladi. Ya'ni bu yerda radif bo'lib kelgan "Qullikning" so'zi misraning oxiriga joylashgan. "*Butxona-yu Ka'ba qullikning xonasi*" emas, balki "*Butxona-yu Kaba-xonasi qullikning*" tarzida ifoda etilgan.

Navro'z kuni lola yuzini yuvdi bulut,
Shaxd ayla-yu, tur- qo'lingga may jomini
tut²².

Ushbu go'zal ta'riflangan misralarda "Lolaning yuzi", "Lola yuzini bulut yuvishi" shaxslantirish san'atini ifoda etgan.

Tarjimondan ayniqsa, she'riy tarjimada katta mahorat va mas'uliyat talab etiladi. Badiiy san'atlar qo'llanilganda asliyatdagi ba'zi so'zlardan vos kechish, o'rniga shu ma'noni beruvchi ma'nodosh topib, undan san'at yaratish murakkab ijod hisoblanadi. Quyidagi barmoq vaznida qilingan tarjimada ham tashbeh san'ati qo'llanilib, asliyatdagidek tarjima yaratilgan:

Loladek qadah tut Navro'z ayyomi,
Lolayuz yor ila xushdir dil komi.
Shodlik ila may ich, firuza falak,
Tuproq qilur oxir, shu ish anjomi²³.

²² O'sha manba. – B. 33.

²³ Shomuhamedov Sh. Umar Xayyom "Ruboiylar". – T.: Sharq, 2008. – B. 120.

²¹ O'sha manba. – B. 98.



Ushbu tarjimada ijodkor lolaning shaklini qadahga, rangini esa yorning qizil yuziga qiyoslamogda. Falak esa tiniq va sofligi sifati bilan firuza toshiga tashbeh qilinmogda.

Xulosa o'rnida aytish mumkinki, manbalarda Umar Xayyom taxminan 1200 ga yaqin ruboiy yozgani aytiladi. Ularning mazmuni, mavzusi turlicha bo'lgani bilan, uning maqsadi bitta - Yaratganning visoliga yetish va uni qo'lidan kelganicha anglash. Umar Xayyomning ruboiylarini tarjimalarida ham ana shu falsafa saqlanib qolishiga e'tibor qaratish, muhim omillardan biri hisoblanadi. Maqolada keltirilgan ustozlar tarafidan qilingan tarjimaga nazar solar ekanmiz, sharqshunos olim Shoislom Shomammedov tarjimasida badiiy tasvir vositalari mahorat bilan qo'llanilgan. Ayniqsa, tashbeh san'ati, tahlilga tortilgan ruboiy tarjimasida muhim o'rin egallagan, bitta obyekt - "Lola" obrazi ikki xil aks ettirilgan. Birinchi misrada lola shaklan qadahga qiyoslansa, ikkinchi misrada rangi jihatidan yorning qizil yuziga qiyoslanmogda.

Sharqshunos olim, f.f.n., dots. Ergash Ochilovning tahlilga olingan tarjimalarida tazod, tashbeh, ishtiyoq san'atlaridan ko'proq foydalanilganiga guvoh bo'ldik. Tarjimalar badiiy tasvir vositalarining hozirgi davr adabiyotiga

mos ravishda qo'llanilishi, yengil o'qilishi bilan ajralib turadi. Aslida, tarjima qilingan ruboiylarda juda ko'p ilmi bade'lardan foydalanilgan, biroq tadqiqot ishimiz chegaralangani bois, ularni kelgusi maqola va ilmiy ishlarimizda tahlil qilishni oldimizga maqsad qilib qo'ydik.

Sharqshunos Jamol Kamol tarjimalari, o'zida badiiy san'atlarni mujassamlashtirgan tarjimalar desak mubolag'a bo'lmaydi. Deyarli har bir baytda, har bir turoq (pauza)da ularni uchratishimiz mumkin. Yuqorida tahlili keltirilgan tashbeh, tarse, takrir, talmeh san'atlari bularning yaqqol namunasidir.

Maqolamizning tahliliga jalb qilgan ustoz sharqshunoslarning tarjimalari shundan dalolat berdi-ki, har uchala tarjimon ijodida ham tazod, takrir, tashbeh san'atidan unumli va maksimal foydalanishgan. Ayniqsa, ishtiyoq, ya'ni jonsiz narsalarni jonlantirish san'ati, ruboiy mazmuniga yanada shukuh beradi va kitobxonga ta'sirini oshiradi, bu esa o'z navbatida mutaxassisning tarjima san'atida yuqori cho'qqilarga erishganligidan, uning mahoratidan dalolatdir.

Shu bilan birga, kitobxon ushbu tarjima asarlarni o'qiydigan vaqtda uning ko'z oldida shakillanadigan tasavvurlar, qalbida paydo bo'ladigan his-tuyg'ular fikrimiz dalili bo'la oladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Эргаш Очилов. Жаҳон Шеърятти Дурдоналари, (Умар Хайём, Тириклик тилсими).—Т.:Ўзбекистон, 2012.



2. Э.Очилов \ Умар Хайём (Рисола); лойиҳа муаллифи ва масъул муҳаррир Қ.К.Ражабов. – Т.: “Abu matbuot-konsalt” нашриёти, 2014. – 32 б.
3. Таржима санъати: Мақолалар тўплами /[Тўпловчи Т. Жўраев; Таҳрир хайъати: Ғ. Саломон (масъул Му-ҳаррир) ва бошқ.].—К. 6.—Т.: Адабиёт ва санъат нашри-ёти, 1985.—264 б.
4. Шоислом Шомуҳамедов. Умар Хайём. Рубойлар.—Т.: Шарқ, 2008.—128 б.